

5-MAVZU. AMALIY MASHG'ULOT. KO'P ATOMLI SPIRTLARGA OID TAJRIBALAR

O'rganiladigan tushunchalar:

- ko'p atomli spirlarning ishlatilishi.

1-tajriba. Bolalar kremida va saqichda ko'p atomli spirlarni aniqlash

Zarur jihoz va reaktivlar: stakan, probirkalar, shisha tayoqcha, mis (II) sulfat eritmasi, kaliy gidroksid eritmasi, distillangan suv, bolalar kremi, saqich.

Ishning borish tartibi:

1. Kimyoviy stakanga 1 ml mis (II) sulfat eritmasi quying.
2. Unga 2 ml kaliy gidroksid eritmasi qo'shing.
3. Moviy cho'kma hosil bo'ladi.
4. Hosil bo'lgan cho'kmani 2 ta probirkaga ajrating.
5. Toza stakanga 1 dona saqichni soling va ustiga 2-3 ml distillangan suv quying.
7. Shisha tayoqcha bilan aralashtiring va 15 daqiqa qoldiring.
8. Birinchi probirkaga bolalar kremidan ozgina soling.
9. Saqichli stakaning tarkibini ikkinchi probirkaga qo'shing.
10. Probirkalarni chayqating.
11. Moviy cho'kma eriydi va to'q ko'k rangli eritma hosil bo'ladi.
12. Kuzatganingiz asosida xulosa chiqaring.

Tarkibida glitserin bo'lgan vositalar qo'l terisini himoya qiladi va yumshatuvchi ta'sir ko'rsatadi! Ko'p atomli spirlar odatda oziq-ovqat mahsulotlariga ta'm beruvchi sifatida qo'shiladi, chunki ularning kaloriyasi oddiy shakarga qaraganda past va tishlarning kariyes bo'lishiga olib kelmaydi. Bunday ta'm beruvchilarga sorbit va ksilit misol bo'ladi.

2-tajriba. Antifriz tayyorlash

Zarur jihozlar va reaktivlar: Spirt (metil, izopropil yoki etil), kir yuvish vositasi, suv, tuz, 1,5 litrlik idish.

Ishning borish tartibi:

1. Bo'sh shisha idishga 100–150 gramm spirt quying. Keyin bir osh qoshiq kir yuvish vositasi va yarim choy qoshiq tuz qo'shing. Qopqoqni yoping, idishni bir necha sekund silkiting. Ko'pik yo'qolishini taxminan 10 minut kuting. Kir yuvish kukuni antifrizning yoqimsiz hidini yo'qotish uchun kerak bo'ladi.
 2. Idishga suv quying, uni yopib, bir necha marta silkiting. Tuz eriguncha kuting.
 3. Olingan suyuqlikni mahkam yopib saqlang. Vaqti-vaqti bilan, ishlatishdan oldin idishni bir necha marta aylantiring. Shundan keyin tayyor antifrizdan foydalanish mumkin.
- Eslatma.** Bunda havoning haroratini inobatga olish zarur. Havo harorati past bo'lsa, spirt miqdori oshiriladi. Har bir gradusga 15 ml spirt to'g'ri keladi.
4. Kuzatganlaringiz asosida xulosa qiling.

Topshiriq

1. "Saqichning qanday zarari bor?" mavzusida loyiha ishi tayyorlash.